

**BOBURNING TA'LIM VA MADANIYATGA QO'SHGAN
HISSASI**

*Urganch innavatsion universiteti "Ijtimoiy gumanitar fanlar va pedagogika"
fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 23/08 guruhi talabasi*

Sharipova Muqaddas Madraximovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondasi Zahiriddin Muhammad Boburning ilm-fan, ta'lim va madaniyatga qo'shgan hissasi bo'yicha fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburiylar davlati, Boburiy merosi, "Boburnoma", tarixiy meros.

Zahiriddin Muhammad Bobur-nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida tarixda o'z o'rniga ega. U o'zining qisqa, lekin mazmunli hayoti davomida ilm-fan, adabiyot, me'morchilik va bog'dorchilik sohalariga katta e'tibor qaratgan. Bobur asos solgan Boburiylar saltanati nafaqat harbiy yutuqlari, balki madaniy taraqqiyoti bilan ham mashhur bo'ldi. Uning madaniyatga qo'shgan hissasi asrlar osha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyayev tabiri bilan aytganda, "Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. Adabiyot, ilm, ma'rifat nuqtai nazaridan u hamon yashayapti. Bu maskanni yanada obod qilib, tarbiya o'chog'iga aylantirish zarur. O'zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm-ma'rifatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo'lmaymiz"[1]. Darhaqiqat umriga nazar tashlaydigan bo'lsak, Zahiriddin Muhammad Bobur 16-17 yoshidan boshlab badiiy ijod bilan ham shug'ullangan, o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozgan. "Bobur turkiy she'riyatda Alisher Navoiydangina keyingi o'rinda edi. U sof va nafosatli turkiyda devon tartib etdi. U nazm yo'lida "Mubayyin" atalmish asarini yaratib, shu bilan ko'pchilik tomonidan foydali deb topilgan islomiy huquqshunoslikka doir ta'limotning muallifi bo'ldi, shuningdek, turkiydagi aruz vazni haqida benazir risola yozdi va "Risolayi volidiya"

ni tarjima qildi. Uning bequsurlikda yagona hamda jo'n uslubda yozilgan "Vaqoye" yoki "Tarixi turkiy" asari ham bor. U musiqa va o'zga san'atlarni g'oyatda nozik idrok etardi" [2]. Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi o'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiasiga, etnografiasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va o'sha davr o'zbek klassik adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo'lgan "Boburnoma" asaridir. Bu asar mazmunining rang-barangligi, bir jahon materialni o'z ichiga olganligi, xil va uslubining go'zalligi bilan XVIII, ayniqsa, XIX asr sharqshunos olimlarining diqqatini o'ziga tortgan va uning turli qo'lyozma nusxalari izlana boshlangan va g'arb tillariga tarjima qilishga kirishilgan edi. Asarning asli nomi "Boburiya" bo'lsa-da, uni "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiya", "Voqeoti Boburiy" deb atadilar, keyinchalik asar "Boburnoma" degan nom bilan mashhur bo'lib ketdi. [3]

Boburning eng katta madaniy meroslaridan biri uning mashhur asari "Boburnoma" bo'lib, bu asar nafaqat tarixiy manba, balki badiiy jihatdan ham yuksak qiymatga ega. Bobur o'z kundaligida o'zi ko'rgan joylar, odatlar, siyosiy voqealar va madaniy hayot haqida batafsil yozgan. U o'z davrining ilm-fan va san'atga bo'lgan munosabatini o'ziga xos uslubda tasvirlab bergan. Bobur madrasalar va maktablarning rivojiga alohida e'tibor qaratgan. Andijon va Samarqand madrasalarini qo'llab-quvvatlagan. Kutubxonalar tashkil qilgan va noyob qo'lyozmalarni yig'gan. Hindiston ta'lim tizimiga o'zgarishlar kiritib, ilm-fanning rivojlanishiga yo'l ochgan. Bobur nafaqat an'anaviy islomiy bilimlarni, balki dunyoviy fanlarni ham rivojlantirishga intilgan. Uning tashabbusi bilan Hindistonda matematika, astronomiya va tibbiyot kabi fanlar rivojlangan. Bobur ilm-ma'rifatni rivojlantirish uchun kutubxonalar tashkil qilgan va ularga qimmatli qo'lyozmalar jamlangan. Samarqand Hindistonda kutubxonalar barpo qilgan. Noyob qo'lyozmalarni to'plab, ilmiy va adabiy merosni saqlab qolgan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Zahiriddin Muhammad Bobur-buyuk sarkarda, davlat arbobi, shoir va ilm-fan homiysi bo'lib, uning ta'lim va madaniyatiga qo'shgan hissasi jahon tarixida alohida o'rin tutgan. U nafaqat o'z davlatchiligini shakillantirish, balki ilm-fan, adabiyot, san'at va madaniyatni

rivojlantirish borasida ham katta meros qoldirgan. Bobur Movaraunnahr, Afgʻoniston va Hindiston hududlarida ilm-maʼrifat va madaniyatni yuksaltirishga xizmat qilgan holda oʻzidan keyingi Boburiylar sulolasi uchun ham mustahkam poydevor yaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 2-iyunda Andijon viloyatiga tashrifida “Bogʻi Bobur” istirohat bogʻi bilan tanishish jarayonidagi nutqi.
2. Koʻchirma N.Gʻ.Nizomiddinovning “Boburiylar davri Hindiston turkiy tili va adabiyoti” -T.:2010,49-bet.
3. “Boburnoma” I qism, Soʻz boshi. -T.:1948, 5-8-betlar.